

TEMURIYLARNING TARIXIY KUTUBXONASI VA BUGUNGI KUNDA SAQLANIB QOLGAN YOZMA YODGORLIKLAR

Axmatov Abdulla Odil o'g'li

Sharisabz "davlat" muzey-qo'riqxonasi kutubxona mudiri.

Tel: +998977999109 Email: aajadidim@gmail.com

Qambarov G'ayrat Sayfiyevich

Sharisabz "davlat" muzey-qo'riqxonasi filial mudiri.

Tel: +9989916378404 Email: qambarovg19@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364748>

Annotatsiya: Ushbu maqolada temuriylar davrining sirli kutubxonasi haqidagi qarashlar tahlil qilinadi va bu kutubxona bilan bog'liq ilmiy izlanishlar o'rganiladi. Shuningdek, ushbu tarixiy kutubxonaning hozirgi kunda mavjudligi yoki yo'qolib ketganligi haqidagi fikrlar oydinlashtiriladi. Temuriylar davriga oid yozma yodgorliklarning bir qismi haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Sirli kutubxona, g'oyib bo'lgan kitoblar, Hazrati Bashir, Niyoztepa, Rampur Razo, Kolber kolleksiyasi.

Annotation: This article analyzes various perspectives on the mysterious library of the Timurid era and explores scientific research related to it. It also clarifies opinions regarding whether this historical library still exists or has been lost. Additionally, the article provides information about some of the written monuments from the Timurid period.

Keywords: Mysterious library, lost books, Hazrat Bashir, Niyoztepa, Rampur Raza, Colbert collection.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды на загадочную библиотеку эпохи тимуридов и рассматриваются научные исследования, связанные с ней. Также освещаются мнения о том, существует ли эта историческая библиотека в настоящее время или она утрачена. Кроме того, приводятся сведения о некоторых письменных памятниках, относящихся к эпохе тимуридов.

Ключевые слова: Загадочная библиотека, исчезнувшие книги, Хазрати Башир, Ниёзтепа, Рампур Разо, Колберская коллекция.

Kirish: Tarixdan ma'lumki buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur Movoraunnahrning poytaxti Samarqandda o'z davrining ilm-fan san'at va madaniyati yuksaltirgan ajoyib shaharni bunyod etgan. Jumladan, bu shaharda Temuriylarning tarixiy kutubxonasi ham qad rostlagan bo'lib, u o'zining yozma yodgorliklari, noyob kitoblari bilan mashxur bo'lgan. Bugungi kunda temuriylar kutubxonasi va undagi yozma yodgorliklar yetarlicha tadqiq qilinmaganligi bois, tarixchilar va kutubxonashunoslar orasida turli xil qarashlarni keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Temuriylarning tarixiy kutubxonasi haqida qariyb to'rt asr davomida ilmiy va amaliy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu izlanishlar kutubxonaning bugungi kunda saqlanib qolganligini asoslaydi. Shu o'rinda Amir Temur asos solgan kutubxonaga va kutubxonachilikka alohida e'tibor berilgan. Buning isboti sifatida quyidagi fikrni keltirishimiz mumkin: "Samarqanddan kitob olib chiqish taqiqlandi. Kitob o'g'irlaganga o'lim jazosi berilgan. Kitoblar bebaho boylik sifatida himoyalangan.

Amir Temur o'zi vatani Shahrisabzda, so'ngra mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasiga asos solgan.[1]"

Avvalo bugungi kunda mavjud bo'lgan Temuriylar davridan qolgan yozma yodgorliklarga to'xtalsak. Sharqshunos olim Xayrulla Ismatullayevga ko'ra: "Britaniya Muzeyi, Parij Milliy Kutubxonasi, Oksford, Kembrij, Sorbonna, Garvard, YEL universiteti kutubxonalari, Gollandiya, Olmoniya, Ispaniya, Italiya, Vatikan kitobliklari, hamda Turkiya, Eron, Hindistondagi kutubxonalarda o'zimiz saqlay olmagan ko'plab yozma adabiyotlarimiz namunalari avaylab asrab kelinmoqda.

O'rta Osiyo taraqqiyoti uchun Uyg'onish hisoblangan bu davr biz uchun muhim ahamiyatga molikdir. Ma'lumki, Sulton Husayn Boyqaro asarlari Britaniyadagi Chester Betti kutubxonasida 404 raqami bilan, Britaniya Muzeyida Or.208 raqami bilan, Parijdagi Milliy kutubxonada 993 raqami bilan, Turkiyadagi To'pqapi Saroy Muzeyi kutubxonasida E.N. 1686 va A.2381 raqamlari bilan saqlanib kelinmoqda. Aniqlanishicha, Sulton Husayn Boyqaroning o'z zamonasi mashhur kishilariga yo'llagan xatlari hamda chiqargan farmonlari ham jahon kitobliklarida saqlanib qolgan.

Britaniya Muzeyida Or. 61 katalog raqami bilan Sulton Husayn Boyqaroning Boyozid 2 ga yozgan xati, shu muzeyda yana Og. 1702 katalog raqami bilan Sulton Husayn Boyqaroning Hasanbeg Bahodirga yozgan xati saqlanadi." [2]

Shuningdek "Dunyoga mashhur Rampur Raza kutubxonasi Hindistonning Uttar-Pradesh shtatidagi Rampur shahrida joylashgan. Bu kutubxonada Movarounnahr, Xuroson va Sharqning boshqa hududlariga oid minglab qo'lyozmalar mavjud. Unda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid temuriylarga bag'ishlangan o'nlab kitoblar jamlangan.

Masalan, ular orasida "Malfuzat-i Amir Temur" juda qimmatlidir. Qo'lyozma 1637-yilda Abu Tolib al-Oriziy tomonidan chig'atoy turkiysidan fors tiliga tarjima qilingan. Bu asar Amir Temurning avtobiografik xotirasi hisoblanadi. Bu asar "Vaqi'at-i Temuriy" va "Tuzuk-i Temuriy" nomi bilan ham mashhur. Asar ikki jildli maqoladan iborat. Birinchi qism umumiy boshqaruv san'ati, strategiya va siyosatga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qismi "Tuzukat" deb nomlanib, Temur siyosati va boshqaruv usullariga bag'ishlangan.

Kutubxonada yana bir mashhur asar – Sharafiddin Ali Yazdiyning Temur va temuriylar haqidagi "Zafarnoma" ("G'alabalar kitobi") va "Asnad-i aulad-i amjad-i hazrat-i sohib-qiron" (Amir Temur va uning taxtiga o'tirish sanalari aniq ko'rsatilgan qisqacha risola) mavjud.

Ko'rib turganimizdek, Hindistondagi Rampur Razo kutubxonasida tariximiz, adabiyotimiz bilan bog'liq nodir asarlar mavjud bo'lib, ular navqiron avlodidan bu merosga e'tibor qaratish, uni o'rganishni taqozo etadi.[3]"

Yuqoridagi manbaga ko'ra hozirgi kunda bu kutubxonada: Islom fiqhi, ilohiyoti, falsafa, mantiq, astronomiya, matematika, nutq san'ati, tilshunoslik she'riyat nazariyasi, nazm, tibbiyot, al-kimyo va tumorlar, lochin ovi va qushlar, ertaklar, hayvonlar haqidagi masallar latifalar va afsonalar, shuningdek arab tilidagi, manbalardan, Qur'on tavsifi va imlosi, Rasululloh SAVning tarjimai holi, Sahih hadislar to'plami, Habashiston tarixi, Bag'dod tarixi, geometriya, astronomiya, afsungarlik, musiqa, Islom tibbiyoti, farmakologiya kabi fanlarga oid yuzlab qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqanddagi saroy kutubxonasi juda mashhur bo'lgan. Rus olimi Dmitriy Logofetning yozishicha, "Amir Temur hukmronlik qilgan dastlabki yillarda mazkur kutubxona Shahrisabzda bo'lgan. Keyinchalik Samarqandga ko'chirilgan." Mazkur kutubxonada yunon, lotin, fors, suryoniy, arman va boshqa tillardagi eng noyob qo'lyozmalar saqlangan. Ta'kidlash joizki, barcha kitoblar XI-XII asrlardagi mashhur kutubxonalar singari, fanlar bo'yicha joylashtirilib,

maxsus sandiqlarda saqlangan. Saroy kutubxonasida o'z davrining yetuk olimlari hisoblangan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No'moniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Amir Temur homiyligida ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan" [4] [5]

"Shuningdek, Hindistonda saqlanayotgan Akbarshoh buyrug'i bilan yozilgan noyob kitob haqida ham xabar berildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti ilmiy xodimi Dilorom Karomatning aytishicha, Xudobaxsh Xon kutubxonasi Hindistondagi eng boy kutubxonalardan biri bo'lib, u yerda O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar, xususan, Temuriylar tarixiga oid arab va turk tillaridagi qo'lyozmalar saqlanadi. Bu qo'lyozmalar orasida eng noyobi, qimmatlisi esa "Tarixi xonadoni Temuriya" bo'lib, unda Amir Temur davriga oid 132 ta miniatyura mavjud.[6]

Qolaversa, yana bir qimmatli qo'lyozma mavjudligi ma'lum bo'ldi. Bu astronomiyaga oid "Zij-i Rassad-i Samarqand" qo'lyozmasi bo'lib, hijriy 832, milodiy 1428-29 yillarda noma'lum nusxa ko'chiruvchi tomonidan yozilgan. Ulug'bekning "Zij-i Jadid-i Sultoniy" asaridan (milodiy 1437 yilda yozilgan) oldin yozilgan ushbu qo'lyozma Hindistondagi "Rampur Razo" kutubxonasi fondida saqlanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning xotiralarini aks ettiruvchi "Boburnoma" yoki "Bobur kitobi" asari qo'lyozmasi ham e'tiborga molik topilmalardan hisoblanadi. Qo'lyozmada turli mavzularni aks ettiruvchi 145 ta illyustratsiya mavjud. Shuningdek, undagi 27 ta rasmda Boburning shaxsiy hayoti, 42 ta rasmda o'simlik va hayvonot dunyosi, 27 ta rasmda esa muhim tarixiy epizodlar tasvirlangan. Shu bilan birga, 25 ta jangovar sahna, 12 ta uy hayoti, 7 ta ov sahnasi va 3 ziyofat tasviri mavjud. Qo'llanmada qirq to'qqizta rassomning ismlari keltirilgan. Ushbu qo'lyozma ayni damda Kobulda saqlanadi.

XVII asrda Istanbulda topilgan uyg'ur yozuvidagi "Me'rojnoma" va "Muhammad payg'ambarning ulug'lanishi" asarlari qo'lyozmalarini ham qayd etish joiz. Mazkur qo'lyozmalar XIV asrda qiroli hukmronligi davrida vazir Jan-Batist Kolber kolleksiyasi uchun sotib olingan. Ushbu noyob qo'lyozmalar mutaxassislar tomonidan o'zining naqshlarining nafisligi, juda yorqin ranglari va kuchli estetik ta'siri bilan ajralib turadi, deb baholanadi. Ushbu ikki durdona asarning yuqori sifatli faksimiliyasi "Mueller Schindler" nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Ali Qushchining matematikaga oid "Risola-i Qushchiya" qo'lyozmasi ham qimmatli manbalardan deya e'tirof etiladi. Razo kutubxonasi fondida saqlanayotgan ushbu qo'llanma muallifning eng yaxshi asarlaridan biri hisoblanadi.[7]

Temuriylardan Shohrux Mirzo, Boysung'ur Mirzo va Husayn Boyqaroning kutubxonasi ham adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarning xilma-xilligi va soni jihatdan Temurning Samarqanddagi kutubxonasidan qolishmagan.

Boysung'ur Mirzo Hirotda ulkan kutubxona ta'sis etadi. Unda qirq nafar yetuk hunarmand: xushnavis xattot Mavlono Ja'far Tabrizi raisligida kitobat bilan mashg'ul bo'lib, kitobatga lozim bo'lgan varroqlik, sahhoflik, tasvir, tazhib, tajlid, vassolik, zarafshonlik va boshqa nafosat, badiiy san'at ijodi bilan band bo'lganlar. Mavlono Ja'far Tabrizi Boysung'ur Mirzo kutubxonasining raisi, nasta'liq xatining ijrochisi, Mir Alining shogirdi edi.

Mirzo Boysung'ur tashkil etgan kutubxona va nigorxonasida quyidagi naqqosh va xattot, musavvirlar ishlar edi: Mavlono Shams Boysung'uri xattotlikda Boysung'ur Mirzoning ustozlari,

olti nav yozuvini mukammal bilgan yetuk xattot Xalil Haraviy Boysung'ur Mirzo tarbiyasini olganlardan, u chizgan Amir Temur surati bizgacha yetib kelgan.

O'sha davr tarixnavislarining e'tirofiga ko'ra, shu 40 nafar hunarmand o'z hamdast ham peshalari bilan har biri zamon ajibasi, davron nodirasi bo'lgan. Boysung'ur Mirzo kutubxonasini yirik nafis san'at akademiyasi desa ham bo'ladi. Chunki bu yerda faqat kitob ko'chirish bilan shug'ullanibgina qolmay, nodir qo'lyozmalarning ilmiy-tanqidiy matnini tiklab, tasvirli albomlar ham tuzganlar.

Hozirgi kunda Boysung'ur kutubxonasida yaratilgan kitoblarning aksari Istanbul va Tehron muzeylarida saqlanmoqda.[8]

Yuqorida Temuriylar davridan qolgan yozma yodgorliklar, bugun dunyoning qaysi burchagida saqlanayotganini qisman bilib oldik. Eng asosiy masala esa XVII asrdan beri tadqiq etilayotgan Temuriylarning tarixiy kutubxonasi haqida. Quyida ushbu kutubxona haqidagi izlanishlarni muhokama qilamiz.

Muhokama va natijalar: Ma'lumki deyarli barcha manbalarda Temuriylar kutubxonasining bugungi kunga qadar mavjud ekanligi yoki yo'qolib ketganligi haqidagi qarashlarga duch kelamiz. Lekin hech biri ilmiy jihatdan o'zining aniq isbotini topganicha yo'q. Temuriylarning tarixiy kutubxonasi bugungi kunga qadar kimlar tomonidan qay tarzda tadqiq etilganligini va ilmiy xulosalarni qisqacha keltirib o'tamiz.

“Samarqandda arab, fors, turk, sanskrit, yunon, lotin, arman tilidagi ko'plab bebaho qo'lyozmalar Istanbul, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Bursa, Armaniston kabi davlatlardan, Brus, Isfahon, Hamadon, Sheroz, Bag'dod, Damashq kabi qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lgan shaharlardan olib kelingan edi. Olimlarning taxminicha, Temur Samarqandga VIII asrning birinchi choragida aynan BasrBursadan Ko'fiy xati bilan ko'chirilgan Qur'oni Karimning nusxasini olib kelgan.[9]

Amir Temur kutubxonasidan faqat saroy vakillarigina emas, balki muayyan guruhdagi kitobxonlar ham foydalanganlar. Kutubxonadagi kitoblar fan sohalari bo'yicha ro'yxatga olinib, sandiqlarda saqlangan. Bu tartib kitoblarni hisobga olish uchun emas, balki foydalanish oson bo'lishi uchun ham o'rnatilgan. Temurdan so'ng uning noyob kutubxonasi nabirasi Ulug'bekka (1394 – 1449) meros bo'lib qolgan. Ulug'bek davrida O'rta Osiyo kutubxonachilik ishi yanada rivojlandi. Ayniqsa, Ulug'bek topshirig'i bilan 1428-1429 yillarda Samarqanddagi observatoriya qoshida tashkil etilgan kutubxona eng boy kitob fondiga ega bo'lgan.”[10]

Taxmin qilishlaricha, Ulug'bek yiqqan kitoblar xazinasini Pargami qo'lyozmalaridan boshlangan, Temur Pargami shahrini bosib olganda qo'lyozmalarni ham karvon bilan Samarqandga olib kelgan. Kutubxona Ulug'bek davrida betinim boyib borgan. Kutubxonada Platon, Gippokrat, Ptolomey, Aristotel asarlari to'plangan va yaxshi saqlangan. Bularning tashqari, bu yerda vatandoshlarimiz buyuk olim Muhammad ibn Muso Xorazmiyning algebraga doir mashhur risolasi, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Astronomiya kaliti» nomli asarlari, Al – Battoniyaning astronomik jadvallari; Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» risolasi Ulug'bek ning «Ziji jadidi Ko'ragini», «Ulug'bek ziji»kabi asarlari bo'lgan.

Ulug'bek, kutubxonasining mudiri vazifasiga shogirdi Ali Qushchini tayinlagan. 1449-yilda halok bo'lgan Ulug'bek kitoblar xazinasining bundan keyingi qismati ham Ali Qushchi bilan bog'liq bo'lgan.[10]

Kutubxonaning qidiruv ishlari Samarqand Rossiya imperiyasiga qo'shib olingandan so'ng darhol boshlandi. 1869 yildayoq bu Turkiston general-gubernatori, sharqshunos Aldeksandir Kun qoshidagi maxsus topshiriqlar amaldori zimmasiga yuklatilgan edi. Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetining bu bitiruvchisi arab, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan. Bundan tashqari, Kun onasi tomonidan arman bo'lganligi sababli, ushbu mashhur kutubxona haqida eng qadimgi ma'lumotlar yozilgan tilni ham bilar edi.[11]

Kundan so'ng Aldeksand Ludvigovich Samarqand va unga yaqin joylarda joylashgan masjid va madrasalardagi barcha minoralarni ko'zdan kechirdi. Biroq, buning uchun sarflangan katta sa'y-harakatlarga qaramay, yo'qolgan kutubxonaning izlarini topishning iloji bo'lmadi.

Eng boy qo'lyozmalar to'plami haqidagi afsona Yevropa olimlari va sayohatchilarini qiziqtirdi. 19-asrning ikkinchi yarmidayoq Yevropaning taniqli olimlari Vamberi, Skayler, Uolles va Samarqandga tashrif buyurgan boshqa bir qancha ishqibozlar ushbu kitob omborini izlab yurgan edilar.

1881-yilda Parijda "O'rta Osiyoga paroxodda" nomli kitob nashr etildi, uning muallifi marshal Ney Napoleon-Polning tug'ilgan nabirasi, fransuz harbiy rahbari, jurnalisti va sayohatchisi bir yarim oydan kamroq vaqt ichida Rossiya imperiyasining muhim qismlarida bo'ldi. Ushbu nashrning uch jildli maqolasi Samarqandga bag'ishlangan.[12]

1403-yilda Samarqandga tashrif buyurga Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining kundalik daftariga kutubxona to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni qayd qilgan edi. 1863-yilda venger sharqshunosi Armeniy Vamberi Markaziy Osiyo bo'ylab sayohati davomida, Samarqandda mashhur arman-yunon kutubxonasining "izlari"ni topishga intildi. Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin ko'pgina sharqshunoslar va turli mamlakatlarning olimlari o'z nazarlarini Amir Temurning mashhur kutubxonasiga qaratdilar, uning taqdirini bilishga qiziqdilar. Turkiya viloyatida istiqomat qilayotgan armanlar 1868-yilda Samarqand va Buxoro arman yunon kutubxonasini topish to'g'risidagi iltimosi bilan hukumatga murojaat qildilar.[16]

Bir versiyaga ko'ra, kitob ombori joylashgan rasadxonaning qazish ishlari bu taxminni tasdiqlamadi. Afsonaviy kutubxonani qidirish keyingi o'n yilliklarda olib borildi. Yana ir versiyaga ko'ra, kitoblarni buyuk munajjim Ali-Qushchining sherigi Afg'oniston viloyatlaridan biriga olib ketgan, ikkinchisiga ko'ra, ular Samarqand zindonlaridan biriga dafn etilgan. [13]

Boshqa variantlar ham bor edi. Shunday qilib, Ali Qushchi karvoni Temur kutubxonasining o'ndan bir qismiga ham ega emas edi. Shunday ekan, to'plangan asarlarning aksariyati Samarqandda qolib, o'sha joylarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzila paytida qulab tushgan minora vayronalari ostida ko'milgan bo'lishi mumkin.[14]

O'tgan asrning 60-yillari boshida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida tarixchi va o'lkashunos olimlarning Ulug'bek kutubxonasi Afg'onistonga umuman olib ketilmagani, Qashqadaryo tog'larida yashiringanligi haqidagi maqola va eslatmalar paydo bo'la boshladi. Hatto uning joylashgan joyini - xuddi shu nomdagi daryoning yuqori oqimidagi Hazrati-Bashir qishlog'ini nomlagan holda - sensatsiya mualliflari kitoblar bilan u yerda maxsus jihozlangan zindonda saqlanganiga ishontirishdi. Matbuotdagi shov-shuvlar jamoatchilik fikri tomonidan qo'llab-quvvatlandi.[15]

Keyin esa 1963 yilning bahorida respublika Fanlar akademiyasi ko'rsatilgan hududga samarqandlik arxeologlar guruhini yubordi, ular tarkibiga olimlar S.Kabanov, K.Shaxurin, A.Asqarov va laborant A.Kobzev kiradi. Topilgan epigrafik yodgorliklar va tarixiy mazmundagi

kitoblar bilan tanishish uchun O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xodimlari A.Juvanmardiev va T.Negmatovlar Hazrati Bashir yuborildi.

Bir asrlik pistazor bilan o'ralgan mahalliy qabristonni o'rganib chiqqan olimlar bir qancha qadimiy qabrlarni topdilar. Ulardan biri Hazret-Bashir avliyoning qabri bo'lsa, ikkinchisi temuriylar davrida tuman hokimi bo'lgan amir Said al-Abtariy edi. Yana bir qancha qabr toshlarini sanab bo'lmadi. Shuningdek, arxeologlar qirq kunlik namoz o'qish uchun mo'ljallangan sun'iy g'or (chillaxona) hamda qishloqda joylashgan XVIII asrga oid masjid xarobalari bilan tanishdilar. Biroq ularning izlanishlarining asosiy yo'nalishi go'yoki yer ostida kutubxona joylashgan Niyoztepa tepaligi edi.[13]

Uning izidan borib, arxeologlar qidiruv maydonini sezilarli darajada kengaytirdilar, ammo natija bir xil bo'ldi. Ular faqat sobiq aholi punktlarining qoldiqlarini: uylar devorlari, oshxona anjomlari, sopol buyumlar bo'laklarini topishga muvaffaq bo'ldilar, bu Temuriylar davrida Hazrati-Bashir kichik feodal mulkining markazi bo'lganligini ta'kidlash uchun asos bo'ldi.

Ushbu ekspeditsiya nafaqat Ulug'bek kutubxonasini nomidagi qishloq hududiga olib o'tish masalasini yopdi, balki u haqidagi mavjud versiyalarga tuzatishlar kiritdi. Ilgari, Ali-Qushchi kutubxonasi bilan bu yerga faqat o'zi tug'ilgani uchun borgan, deb taxmin qilingan va bu taxminning asosi qo'shni qishloqlardan birining nomini qo'pol ravishda buzib ko'rsatish edi: Qutchi o'rniga, u uzoq vaqt davomida chaqirilganidek, afsonalar tomonidan olib ketilgan odamlar uni "Qushchi" deb atashdi.[14]

Uni topish turli ixtisoslikdagi olimlar: sharqshunoslar, tarixchilar, arxeologlarning azaliy orzusi edi. Ularning fikricha, Ulug'bekning taqdiri hanuzgacha rivoyatlar mavzusi bo'lib kelgan kutubxonasi saqlanib qolgan va buzilmagan. Shu munosabat bilan har xil taxminlar va turli farazlar ilgari suriladi.

Boshqa bir olim B.Ahmedov bu variantni mumkin deb hisoblaydi. Ulug'bek tomonidan tasdiqlangan dastlabki rejaga ko'ra, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan va cheksiz mablag' bilan ta'minlangan Ali-Qushchi hukmdor vafotidan keyin yuzaga kelgan sarosimaga tushib qolgan va o'zi bilan olib ketishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni: kitoblar, qo'lyozmalar, chizmalar va hokazolarni olib, shoshib Samarqandni tark etadi. U katta karvon bilan, keyin esa avval mamlakatdan jo'nab ketadi. "Kutubxonani yerdan izlash befoyda", deydi Penjikent arxeologik ekspeditsiyasi rahbari A. M. Belenitskiy.[13]

Samarqand universiteti dotsenti A.E.Xatipov qo'lyozmalarining bugungi kungacha saqlanib qolganiga ishonchi komil. Sultonning hamrohlari nodir kitoblarning ajoyib to'plami rasadxona taqdirini baham ko'rishiga yo'l qo'ya olmadilar. A.Xatipovning so'zlariga ko'ra, kitoblar Hazrati Bashir qishlog'i yaqinida yashiringan.Olimlarning fikrlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi, versiyalar har xil, ammo ularning barchasi bir masalada birlashadi – qo'lyozmalar buzilmagan, kutubxonani topish kerak!

Kutubxonaning mavjudligi haqida ishonchliroq ma'lumotlar mavjud. Ulug'bekning shogirdi, matematik olim Ali Qushchi "Arifmetika kaliti" risolasining so'zboshisida shunday yozadi: "Men buni eng ulug', oliyjanob Sulton Ulug'bek Kuragan kutubxonasi uchun qildim"[12].

Xulosa: Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, Temuriylarning tarixiy kutubxonasi, to'liq yo'qolib ketmagan. Uning parchalari bugun dunyoning turli burchaklaridagi muzeylarda, kutubxonalarda nodir qo'lyozma sifatida saqlanmoqda. Shu o'rinda Temuriylarning sirli kutubxonasi va unga bo'lgan qiziqish, kutubxonaning qisman topilganligi ammo hali hanuz

katta qismi topilmaganligidan darak beradi. Ana endi Olimlarning fikrlarni tahlil qilish orqali kutubxonaning bugungi taqdiri haqida shaxsiy fikrlarimni yozib qoldiraman.

Birinchidan: Mirzo Ulug'bek va qolgan barcha temuriyzodalar kutubxonaning qanchalik muhim ekanligini va u davlat xavfsizligi darajasida, muhofaza qilinganligini yaxshi bilishgan Kutubxona haqidagi ma'lumotlarni maxfiylashtirishgan. Bunday fikrga kelishimga manbalardagi Temur kutubxonasidan hatto bitta hujjat olganni ham o'limga hukm qilganligi asos bo'ladi. To'g'ri olimlar juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borishgan, Ammo dastlabki tadqiqotchilarning hech biri markaziy Osiyoda yashamaganligini hisobga olishimiz kerak. Zero Amir Temur shu qadar ma'rifatli inson bo'lganligi o'zi avlodlariga ilmida undan-da yaxshiroq bo'lishini ta'minlagan meni nazarimda.

Ikkinchidan: Mirzo Ulug'bekning o'zi kutubxonani maxfiylashtirgan bo'lishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarim buni tasdiqlashga turtki bo'ladi. Shuningdek Ulug'bek Olim va mutafakkir inson bo'lgan.

Uchinchidan: Ali Qushchi kitoblarni turli joylarga yashirib, bir qismini o'zi bilan Turkiyaga olib ketgan. Uning karvoni haqidagi ilmiy qarashlar bu haqiqatga yaqinroq manba bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan: Kutubxona Hazrati-Bashir ziyoratgohiga yaqin Niyoztepa manzilgohida, Shuningdek Qizil sharshara nomi bilan atalgan tog' tizmalari orasida, shuningdek Samarqanddan 70 km masofada, Samarqanddagi yer ostiga ko'milib ketgan minoralar ostida qolgan bo'lishi mumkin. Bu taxminlar ilmiy izlanuvchilarning tadqiqotiga suyanib ilgari suramiz.

Demak Temuriylarning tarixiy kutubxonasi Hozirga qadar sirtiligicha qolmoqda, undan olingan manbalar dunyoning turli burchaklarida hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chamxyan, M. (2023). Amir Temur va temuriylar davrida kitobat san'ati va kutubxonalar. Payariq tuman axborot-kutubxona markazi. Olingan sana: 2025-yil 3-may, manba: <https://www.payariq.takm.uz>
2. Ismatullayev, X. Zarvaraqlar / X. Ismatullayev // Maqola. – 2015. – 21 iyun. – B. 1.
3. Ўзбекистон маданият мероси муаллифлик туркуми: Ўзбекистон адабий мероси Рампур Раза кутубхонаси тўпламида (Ҳиндистон). Иккинчи қисм, китоб-альбоми / Ф.Ф. Абдухолиқов, Э.В. Ртвеладзе, Сейид Ҳасан Аббас, Г.С. Хважа, С. Нақи Аббас (Кайфий). – Т.: «Zamon-Press-Info Nashriyot uyi» МЧЖ, «Silk Road Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кўра, 2021. – 552 б.
4. Амир Темур ўғитлари. – Т.: “Наврўз”, 1992. – 59 б.
5. Султон Ҳусайн Бойқаро ижоди жаҳон кутубхоналарида [Электрон ресурс] // Oyina.uz. – 2023. – 11 март. – Режим кириш: <https://oyina.uz/uz/article/3376> (мурожаат қилинган сана: 2025.05.02).
6. Темур кутубхонаси борми? [Электрон ресурс] // Telegra.ph. – 2023. – 25 ноябрь. – Режим кириш: <https://telegra.ph/Temur-kutubxonasi-bormi-11-25> (мурожаат қилинган сана: 2025.05.02).

7. Улуғбекнинг сирли сурати — Маданий мерос конгрессида [Электрон ресурс] // *Xabar.uz*. – 2023. – [сана кўрсатилмаган]. – Режим кириш: <https://xabar.uz/uz/madaniyat/ulugbekning-sirli-surati-madaniy-meros-kongressida> (мурожаат қилинган сана: 2025.05.02).
8. Kutubxona – nurxona. O'rta Osiyoning qadimgi kutubxonalari [Elektron resurs] // *Kattaqo'rg'on tuman axborot-kutubxona markazi*. – Rejim kirish: <https://kattakurgon.takm.uz/yangiliklar/item/49-kutubxona-nurxona-o-rta-osi-yoning-qadimgi-kutubxonalari> (murojaat qilingan sana: 2025.05.02).
9. Ғойиб бўлган кутубхоналар. – *Odam.uz*, 2019. – Режим кириш: <https://www.odam.uz/amp/news/2541> (мурожаат қилинган сана: 2025.05.02).
10. Улуғбек расадхоналари. – Википедия, 2021. – Режим кириш: https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BBek_rasadxonasi (мурожаат қилинган сана: 2025.05.02).
11. Rasulov, O. Temur kutubxonasi bormi? // *Telegra.ph* – 2021. – <https://telegra.ph/Temur-kutubxonasi-bormi-11-25> (murojaat qilindi: 2025.05.03).
12. Bibliomir83. Tayna biblioteki Timura // *Bibliomir83.blogspot.com* – 2019. – https://bibliomir83.blogspot.com/2019/04/blog-post_5.html (murojaat qilindi: 2025.05.03).
13. Назарьян Р. По следам легендарной библиотеки Улугбека [Электронный ресурс] // *Samcity.uz*. – 2016. – 11 авг. – Режим доступа: <https://www.samcity.uz/gorod/593-po-sledam-legenda> Назарьян Р. В поисках легендарной библиотеки Улугбека [Электронный ресурс] // *Vesti.uz*. – 2020. – 6 февр. – Режим доступа: <https://vesti.uz/v-poiskah-legendarnoj-biblioteki-ulugbeka/>, свободный. – (Дата обращения: 03.05.2025).
14. Ulug'bek kutubxonasi haqida muhokama [Электронный ресурс] // *Odnoklassniki*. – Режим доступа: <https://m.ok.ru/group/47971841278018/topic/68912044531778>, свободный. – (Дата обращения: 03.05.2025).
15. Косарев А. Заморские клады: кладоискательские истории [Электронный ресурс]. – М.: Вече, 2004. – ISBN 5-94538-442-9. – Режим доступа: https://libking.ru/books/russian_contemporary/643333-aleksandr-kosarev-zamorskie-klady-kladoiskatelskie-istorii.html, свободный. – (Дата обращения: 03.05.2025).
16. To'uchiyeva D. Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat san'ati va kutubxonalar // *Oriental Art and Culture: Scientific-Methodical Journal*. – 2022. – Т. 3, № 2. – В. 290–297.